

NEMIS TILIDAGI SOF YURIDIK TERMINLAR TASNIFI VA LEKSIK XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya: Maqolada nemis tilidagi huquqshunoslik sohasiga oid sof yuridik terminlarning leksik, semantik, fonetik va uslubiy xususiyatlari, tasnifi yoritib berilgan.

Аннотация: В статье описаны лексические, семантические, фонетические и стилистические особенности, классификации относящихся к области юриспруденции, в немецком языке.

Annotation: The article describes the lexical, semantic, phonetic and stylistic features, and classification of purely legal terms related to the field of jurisprudence in German

Kalit so'zlar: Termin, terminologiya, yurisprudensiya, sof yuridik termin, o'zlashma, bir komponentli, ko'p komponentli, huquq, ekvivalent.

Ключевые слова: Термин, терминология, юриспруденция, чисто юридический термин, заимствованные слова, однокомпонентный, многокомпонентный, право, эквивалент.

Key words: Term, terminology, jurisprudence, purely legal term, borrowed words, one-component, multi-component, law, equivalent.

Hozirda milliy tillarni saqlash va ularni qo'llash borasida tilshunoslik sohasida ko'plab izlanishlar qilinmoqda. Ya'ni, har bir tildagi lisoniy birliklarni sof va o'zlashma atamalarga ajratib o'rganish mumkin. Ushbu maqolamizda biz sof so'zlar, aniqroq qilib aytganda muayyan sohaga oid sof terminlarni tadqiq qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Tilshunos olim A.Reformatskiy terminlar haqida – o'ziga xos maqsadi bilan cheklangan maxsus so'zlar; tushuncha va narsalarni aniq ifodasi sifatida bir ma'noli bo'lishga moyil so'zlardir. Bu fan, texnika, siyosat va diplomatiyada kerak bo'ladi¹, degan ta'rifni beradi. „Termin“ so'zi grekcha „terminus“ so'zidan olingan bo'lib, chek, chegara degan ma'noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi. Terminologiya - terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui, degan ma'nolarni anglatadi.² Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yurisprudensiya sohasiga oid so'zlar yuridik terminlar sifatida qaraladi. Mazkur terminlarning leksik, grammatik va uslubiy xususiyatlari yuridik tilda o'z aksini topadi. Taniqli huquqshunos olim professor A.X. Saidov ta'kidlaganidek, „Yuridik til – ko'p ming yillik taraqqiyot va ko'p avlodlar tajribasi mahsuli“. „... Huquq rivojlanishining tarixiy tajribalarini o'zida mujassam qilgan yuridik til inkor etish mumkin bo'lmagan qadriyat, huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir“.³

Sof terminlar deb muayyan til (til oilasi; guruhi) va tilda gaplashuvchi millatga oid bo'lgan so'zlarga aytiladi. Nemis tilidagi sof terminlar Hind-evropa tillar oilasi, Roman-german tillari guruhiga kiruvchi so'zlar hisoblanadi. Sof yuridik terminlar deganda aynan bir millatning kundalik turmush tarzida qo'llaniladigan yurisprudensiyaga xos bo'lgan tushunchalarni aytish mumkin.

¹ Реформатский А. А. Р 45 Введение в языковедение/Под ред. В.А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996.- 61/536

² <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tilshunoslik/til-va-terminologiya>

³ Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007. 18-b.

Nemis tilidagi sof yuridik terminlar deganda esa faqat mazkur tildagi huquqshunoslik sohasiga xos terminlar tushuniladi, bundan tashqari ular asosan bir ma'noli so'zlardir. Biz yuridik lug'atlardan nemis tilidagi sof yuridik terminlarini ajratib olganimizda, ularning soni o'zlashma yuridik terminlarga nisbatan ko'proq degan xulosaga keldik va quyida biz nemis tilidagi sof yuridik terminlarni tasnif qildik.

1. Bir komponentli sof yuridik terminlar: *das Gesetz, die Bestrafung, die Erbfolge, der Beschuldigte, das Recht, die Vollmacht, die Wahl, das Gewalt, der Bürger.*

2. Ikki komponentli sof yuridik terminlar: *Europäische Anwaltsvereinigung, bürgerliches Gesetzbuch, gesetzliches Schuldverhältnis, Christlicher Gewerkschaftsbund, bürgerlicher Tod, bürgerliches Gesetzbuch, abgeleiteter Eigentümerwerb, höhere Gewalt, innere Verwaltung.*

3. Ko'p komponentli sof yuridik terminlar: Allgemeines Deutsches Handelsgesetzbuch, Allgemeines bürgerliches Gesetzbuch, Eigentümer-nichtberechtigter Besitzer – Verhältnis, freie richterliche Überzeugung, Geschäftsführung ohne Auftrag, Gesellschaft des bürgerlichen Rechts.⁴

Nemis tili yuridik terminlar tarjimasini o'zbek tili bilan solishtiradigan bo'lsak, nemis tilining bir komponentli terminlari o'zbek tilida bir nechta so'z bilan, yoki ikki komponentli ko'p komponentli terminlar bilan ifodalanishi mumkin, masalan: die Frauenrecht - ayollar huquqi, gesetzgebende Gewalt – qonun chiqaruvchi hokimiyat (organ), die Gesetzessammlung – qonunlar to'plami, die Gerichtsverwaltung – sud hokimiyati. Demak, terminlarning bir, ikki yoki ko'p komponentli bo'lishi har bir tilning strukturaviy qonuniyatlari bilan bog'liq hisoblanadi. Quyida mazkur terminlarning har ikkala tildagi tarjimalarini ko'rib chiqamiz:

1. Gesetzgebende Gewalt → Gewalt, gesetzgebende, Gewaltenteilung – Qonun chiqaruvchi hokimiyat; hokimiyatning bo'linish nazariyasiga muvofiq, davlatda hokimiyatning bir-birini muvozanatda ushlab turuvchi uch tarmog'idan biri.

2. Gesetzessammlung - ist die Sammlung von → Gesetzen – Qonunlar to'plami, qonunlar va boshqa muhim normativ-huquqiy hujjatlarni to'plab, qat'iy tartib asosida jamlash.

Nemis tilidagi yuridik terminlarining semantik xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, nemis yuridik terminlarni uch turga, tor, keng ma'nodagi hamda yuridik bo'lmagan terminlarga ajratish mumkin.

1) Tor ma'nodagi yuridik terminlar yuridik sohaga aloqador bo'lgan va huquqshunoslik tiliga bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Huquqshunoslikdagi terminni alohida tushunish qiyin. Bunga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: *Bescheidbeschwerde, Legalitätsprinzip, Flächenwidmung* – ijtimoiy huquqqa doir terminlar; *Schadenersatz, Sachwalter oder Publizitätsprinzip* – fuqarolik huquqiga doir terminlar.

2) Keng ma'nodagi yuridik terminlar yuridik bo'lmagan vaziyatlarda qo'llaniladigan, o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan va yuridik tilda maxsus holatlarda ham qo'llaniladigan atamalardir. Bunga misol tariqasida *Widerspruch* (e'tiroz), *die Klage* (shikoyat), *die Tätigkeit* (faoliyat, harakat) so'zlarini keltirish mumkin. Ushbu kategoriya "so'zning ikki ma'noliligi" fenomenini isbotlaydi va leksik xususiyatni ifodalaydi.

3) Yuridik munosabatlardan tashqarida sodir bo'ladigan holatlarda qo'llaniladigan so'zlarga yuridik bo'lmagan so'zlar deyiladi, lekin bunday so'zlar huquqiy munosabatlarga aloqador bo'lishi mumkin. Bunga "die Strasse" so'zini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda ko'z o'ngimizda termin transport vositalari va piyodalar uchun qatnov yo'li gavdalanadi. Dastlab hayolimizga huquqshunoslikka doir hech nima kelmasligi aniq. Biroq, yo'l harakati qoidalariga nazar solish bilan tezda bu borada yetarli ma'lumotga ega bo'linadi.⁵

⁴Gerhard Köbler. Juristisches Wörterbuch. Gerhard: Juristisches Wörterbuch / – 12., neubearb. Aufl. – München : Verlag Franz Vahlen GmbH, 2003.-S.596

⁵ Verständliche Rechtssprache – ein steiniger Weg, Diplomarbeit zur Erlangung des akademischen Grades Magister der Rechtswissenschaften im Diplomstudium der Rechtswissenschaften an der rechtswissenschaftlichen Fakultät der Johannes Kepler Universität Linz, S. 21

Xulosa qilib aytish mumkinki, nemis tilidagi yuridik terminlarning aksariyat qismi sof terminlar hisoblanadi. Ushbu sohaga oid o'zlashmalar esa asosan lotin va ingliz tillaridan o'zlashgan. Bundan tashqari o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan terminlar soni ko'pchilikni tashkil etadi. Nemis tilidagi sof yuridik terminlarning ko'pchiligi bir komponentli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuristning nutq madaniyati, Usmonov S. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007
2. Реформатский А. А. Р 45 Введение в языковедение/Под ред. В.А. Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 1996.- 61/536 с
3. Gerhard Köbler. Juristisches Wörterbuch. Gerhard: Juristisches Wörterbuch / – 12., neubearb.Aufl.– München : Verlag Franz Vahlen GmbH
4. Verständliche Rechtssprache–ein steiniger Weg, Diplomarbeit zur Erlangung des akademischen Grades Magister der Rechtswissenschaften im Diplomstudium der Rechtswissenschaften an der rechtswissenschaftlichen Fakultät der Johannes Kepler Universität Linz
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/tilshunoslik/til-va-terminologiya>
6. Sh, S. N., Ro'zmetova, O. S., Xusinbayev, I. D., & Sh, A. S. (2024). SURUNKALI BUYRAK KASALLIGIDA GIPOAZOTEMIK DORI VOSITALARINING TA'SIR SAMARADORLIGINI O'RGANISH ORQALI DAVONI MUQOBILLASHTIRISH.
7. Шамуратова, Н. Ш., Рузметова, Д. А., Саттарова, Н. А., & Нуруллаев, С. Х. (2024). ЖИРОНОКИСЛОТНЫЙ СОСТАВ ЛИПИДОВ ЗЕРНОВОГО СОРГО (SORGHUM) ВИДА «КАТТА-БАШ». International Journal of Education, Social Science & Humanities, 12(4), 1238-1245.
8. Kalandarova, G. D., & Sh, S. N. (2023). THE LAWS OF CORRECT DIET AND THE CONSEQUENCES OF IMPROPER DIET. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 1(8), 64-67.
9. Шамуратова, Н. Ш., Зокирходжаев, Ш. Я., & Рузметова, Д. А. (2023). ЖИГАРНИНГ СУРУНКАЛИ КАСАЛЛИКЛАРИДА ДИЕТОТЕРАПИЯДА МАҲАЛЛИЙ МАҲСУЛОТЛАР ҚЎЛЛАШНИНГ САМАРАСИ (Doctoral dissertation, UZBEK JOURNAL OF CASE REPORTS, Узбекистан).
10. Шамуратова, Н. Ш., & Закирходжаев, Ш. Я. (2019). ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ДИЕТОТЕРАПИИ, С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ РАЦИОНА, ОБОГЩЕННЫХ МЕСТНЫМИ ЗЕРНОВЫМИ КУЛЬТУРАМИ У БОЛЬНЫХ ХРОНИЧЕСКИМИ ГЕПАТИТАМИ. In Академическая наука-проблемы и достижения (pp. 12-14).
11. ШАМУРАТОВА, Н., РУЗИМОВ, Х., & РУЗМЕТОВА, Д. (2023). БИОЛОГИЧЕСКАЯ И ДИЕТИЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ ЗЕРНОВОЙ ПРОДУКЦИИ СОРГО ПО АМИНОКИСЛОТНОМУ СОСТАВУ ПРИ НЕКОТОРЫХ ЗАБОЛЕВАНИЯХ.